

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA KOMPETENSIYAVIY  
YONDASHUV**

**Qo'ldosheva Gulandom Sadilloyevna**

*Navoiy viloyati Nurota tumani*

*34- umumiy o'rta ta'lif maktabi*

*Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annontatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida kompetensiyalarni o'z o'rnida qo'llanilishi va afzalliklari haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *bilim, andoza, qobiliyat, kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, ta'lif-tarbiya, pedagog, tayanch kompetensiya.*

“Mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ta'lif-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga alohida e'tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamонави bilim va kasb-hunarлarni egallashi, jismonan va ma'nан yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi, ularning qobiliyat va iste'dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda”, – deb so'z yuritadi mamalakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev.O'zbekistonda ta'lif-tarbiya sifati, jumladan, boshlang'ich ta'lif samaradorligini oshirish, malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, o'quv uslubiy ta'minotini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar natijasida boshlang'ich sinflarda ona tili fanini integrativ yondashuv asosida o'qitish, modulli ta'lif texnologiyalarini qo'llash, o'quv materiallarini strukturalashtirish ta'lif mazmunini ilmiy tashkil etish va fanlarni o'zlashtirishda kompetensiyadan foydalanish ta'lif samarasini yuksaltirmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlaridan birida shunday deydi: Darhaqiqat, mamlakatimizda ta'lif tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar va islohotlar, tabiiyki, ta'lifda kompetentli yondashuvni talab etmoqda. Ta'lifda kompetensiyaviy yondashuv deyilganda, o'quvchilarning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli xildagi malakalarini samarali ravishda qo'llashga o'rgatish tushuniladi.

Shuningdek, bunday yondashuvga asoslangan ta'lif o'quvchilarda mustaqil, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umum-madaniy ko'nikmalarni shakllantiradi. O'qituvchilar o'z faoliyatida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini topishi, eng muhim, o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur tayanch kompetensiyalarga ega

bo‘lishlari va darslar davomida o‘quvchilar ongiga singdirib borishlari lozim. Inson o‘z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh kadr bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim.

Xo‘s, hozirgi kunda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS nima uchun zarur bo‘lib qoldi. Bu savolga javob berish uchun “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning asosiy tarkibiy qismlariga e’tibor qaratish lozim. Ya’ni ta’lim tizimi, shaxs, davlat va jamiyat, fan va ishlab chiqarishdan iborat bo‘lgan milliy modelning ayrim qismlaridagi ulkan o‘zgarishlar xususan davlat va jamiyatning tubdan o‘zgarishi, hayotimizga kirib kelgan axborot-kommunikatsion vositalar, fanning eng so‘nggi yutuqlariga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari va oldingi yoshlardan tubdan farq qiluvchi o‘zgacha fikrlovchi yoshlarning vujudga kelganliklarini javob tariqasida aytish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi. Kommunikativ kompetensiya - ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o‘zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, tutadi. Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi - mediamanbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta’minlashni, media madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi - doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallahni nazarda tutadi. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi - jamiyatda bo‘layotgan voqeja, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya - vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish, umuman olganda hamma

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

fanlarda barcha kompetensiyalarni o'quvchilarda shakllantirish, ularni kelajakda o'z faoliyatlari jarayonida, oilada, jamiyatda va barcha jabhalarda o'z o'rnini topishga xizmat qiladi deb hisoblayman. Darslar davomida kompetensiyalarni o'z o'rnida va to'g'ri qo'llanilishi ko'zlanga natijaga erishishda yuqori samara beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Ta'lif sohasini isloh qilish, kasb-hunar ta'limi tizimini yanada rivojlantirish va oliy ta'limning bakalavr yo'naliishiga qabul bo'yicha test sinovlarini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan” yig'ilishdagi nutqidan.
2. Foziljon Anapiyayevning “Kompetensiyaviy yondashuv: muammo va yechimlar” qo'llanma
4. N.Muslimovning “ Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” o'quv qo'llanma